

Date: 9th February-2025

O‘ZBEKISTONDA QO‘YLARNING ICHAK SESTODLARI BILAN
ZARARLANISHI: EPIZOOTOLOGIK TAHLIL VA DIAGNOSTIKA USULLARI

Esimbetov Adilbay Tlepovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. Professor.

Avezimbetov Shavkat

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, dotsent.

Bauaddinov Kamaladdin Karamaddinovich

Magistrant.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston sharoitida qo‘ylarning ichak sestodlari qo‘zg‘atadigan moniezioz, tizaniezioz va avitellinioz kasalliklarining tarqalishi o‘rganilgan. Tadqiqotlar Samarqand viloyatining turli iqlim-geografik zonalarida o‘tkazilib, qo‘ylarning yoshiga qarab invaziya ekstensivligi va intensivligi tahlil qilingan. Monieziozga chalingan qo‘zilarning yosh guruhlari bo‘yicha zararlanish dinamikasi ko‘rsatilib, *M. expansa* ning epizootologik ustunligi aniqlangan. Gelmintokoprologik tekshiruvlar va Fyulliborn usuli yordamida diagnostika natijalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ushbu kasalliklarning oldini olish va davolash strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Qo‘ylar, ichak sestodlari, moniezioz, tizaniezioz, avitellinioz, epizootologiya, gelmintologik tekshiruv, invaziya ekstensivligi, invaziya intensivligi, Fyulliborn usuli.

O‘zbekistonda ham qo‘ylarning ichak sestodlari qo‘zg‘atadigan moniezioz, tizaniezioz, avitelliniozlarning qo‘zg‘atuvchilarining tarqalishini, ularning turli iqlim – geografik zonalari, yilning mavsumlari va qo‘ylar yoshiga ko‘ra invaziya ekstensivlik va invaziya intensivlik darajalarining o‘zgarishini o‘rganishga e‘tibor qaratila boshlandi. Bunday tadqiqotlar ilk bor 1951-1953 yillarda R.X. Xaitov tomonidan Samarqand viloyati sharoitida saqlanadigan qo‘ylarda olib borildi. Muallif o‘z ilmiy rahbari professor N.B.Badanin singari qo‘ylarda *S.globipunctata* dan tashqari 4 tur ichak sestodlari - *M.expansa*, *M. benedeni*, *T.giardii* va *A.centripunctata* larni parazitlik qilishini aniqladi. Shunisi qiziqarliki, R.X.Xaitov ilk bor ushbu sestodlar orasida tarqalishi va invaziya intensevligi darajasi bo‘yicha *T.giardii*ni birinchi, *M. benedeni* ni ikkinchi o‘rinda, uchinchi o‘rinda *M.expansa* ni, eng so‘ngi o‘rinda esa *A.centripunctata* ning turishini aniqlab berdi. Barcha aniqlangan sestodlarning 50.0 foizidan ortig‘ining *T.giardii* 24.8 foizni, *M. benedeni* 16.6 foizini, *M.expansa* atigi 5.6 foizni *A. centripunctata* tashkil qilgan. Aynan shu kabi natijalar O‘zbekistonning janubiy qismini egallagan Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarining qo‘ylarida M.Mardiev tomonidan 1963-1967 yillarda, Sh.A. Azimov tomonidan esa 1960-1970 yillarda, Farg‘ona vodiysi hududidan tashqari, respublikaning barcha viloyatlari va Qoraqalpog‘iston hududida qayd qilingan.



Date: 9th February-2025

Tadqiqotlar kasallikdan o'lgan yoki majburiy hamda go'sht mahsuloti olish uchun so'yilgan qo'ylarning ingichka bo'lim ichaklarida joylarda yoki "veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi" kafedrasining ilmiy – tadqiqot laboratoriyasida akademik K.I.Skryabinning ichki organlarining alohida to'liq gelmintologik yorish usulida tekshirildi. Ichakda topilgan barcha sestodlar toza suvda yuvib olinib, maxsus shisha idishlarga solindi. Har bir sestodning skoleksi, bo'yinchasi va strobilasidagi bo'g'imlarning shakli, hajmi, yetilgan bo'g'imlardagi tuxumlari yoki pillalari alohida makroskopik va mikroskopik usullar yordamida o'rganildi. Ularning turlari aniqlangach 70 foizli spirtida yoki 3.0 foizli Barbagallo suyuqligida saqlandi.

Ushbu muhim masalani yoritish uchun bakalavrluk va magistrlik o'qish davomida Samarqand viloyatining sug'oriladigan, tog'oldi-tog' va cho'l-yaylov biotsenozlarida saqlanadigan qo'ylardan 62 boshining ingichka ichaklarini to'liq gelmintologik yorish yo'li bilan tekshirdik. Ularning 36 boshining ichaklarida 444 nusxa sestodlar topildi. Bu esa ularning invaziya ekstensivligini 58,4 fozga, invaziya intensivligini o'rtacha 12,3 nusxa sestodga to'g'ri kelishini ko'rsatdi. Har bir qo'yning ichagida 1 nusxadan 37 nusxagacha sestodlarning parazitlik qilishi aniqlandi. Jami yig'ilgan sestodlar kafedra assistenti Sh.X.Qurbonov bilan birgalikda professor B.S.Salimov rahbarligida morfologik jihatdan o'rganildi. Natijada ularning orasida quyidagi anoplotsefalyatozlar – moniezioz, tizaniezioz va avitellinioz qo'zg'atuvchilarining parazitlik qilishi aniqlandi. Ular gelmintlar sistematikasida quyidagicha joylashgan.

Tip – *Plathelminthes Schneider*, 1873

Sinf- *Cestoda Rudolphi*, 1808

K/sinf- *Eucestoda Southwell*, 1930

Turkum- *Cyclophyllidea Beneden in Braun*, 1900

K/turkum- *Anoplocephalata Skrjabin*, 1933

Oila- *Anoplocephalidae Chloodkowsky*, 1902

Avlod- *Moniezia Blanchard*, 1891

Moniezia expansa (Rudolphi, 1810)

Moniezia benedeni (Moniez, 1879)

Oila- *Avitellinidae Spassky*, 1950

Avlod- *Avitellina centripunctata (Rivolta, 1874)*

Avlod – *Thysaniezia Skrjabin*, 1926

Thysaniezia giardi (Moniez, 1879)

Yangi to'g'ilgan qo'zilar ilk bor u yoki bu gelmintoz qo'zg'atuvchilari, shu jumladan monieziyalar bilan ilk bor zararlangan. Shu sababli ularni to'g'ilgandan so'ng oyma-oy tekshirib borish monieziozning haqiqiy epizootologiyasiga aniqlik kiritadi. Ushbu masalani yoritish uchun bizlar tadqiqotlarimizni *M.expansa* qo'zg'atadigan uning toza o'chog'ida 2010-2011 va 2024 yillarda olib bordik. Uning uchun viloyatning Oqdaryo tumaniga qarashli institutning o'quv-tajriba xo'jaligida saqlanadigan qo'zilarida olib bordik. Ushbu xo'jalikda prof. B.S.Salimovning talabalar va magistrlar bilan o'tkazib kelingan tadqiqotlari bo'yicha 2007- yilda qo'zilarini moniezioz qo'zg'atuvchilaridan faqat *M.expansa* bilan zararlanganligi ko'zatilib kelinadi.



Date: 9th February-2025

Tadqiqotlarimiz 2024- yilning fevral oyidan 2025-yilning mart oyigacha olib borildi. Fevral oyida 12 bosh 2024-yilning noyabr oyining oxiri, mart oylarida to'g'ilgan 2-3 oylik qo'zilar tanlab olindi. Mart oyida ular qatoriga 2024-yil yanvar oyida to'g'ilgan yana 6 bosh qo'zilarni qo'shdik va ularni yilning oxirigacha yani 12-13 oylik bo'lishiga qadar tekshirib bordik. Har oyda ularning to'g'ri ichagidan 10-15 gr tezak namunalari olindi. Kafedraning ilmiy tadqiqot laboratoriyasida ular Fyulliborn usulida monieziyalarning tuxumlariga tekshirib borildi. Tezak namunalarining bir qismi kafedra magistri M.E.G'aipova tomonidan ketma-ket yuvish usulida tekshirib borildi. Ushbu usulda ham monieziya tuxumlarini suv ostiga cho'kishi ko'zatildi. Ammo Fyulliborn usulini aniqligini va tez amalga oshirilishini hisobga olib, undan keng foydalandik.

Tekshirish o'tkazilgan 12 oy davomida Fyulliborn usulida monieziya tuxumlari 40-60 minut davomida to'yingan osh tuzi eritmasi yuzasiga qalqib chiqishini ko'zatkid. Bu tuxumlar uchburchak shaklda bo'lib ular *M.expansa* ga tegishli edi. Bakalavr va magistrlik davrlarda olib borgan ilmiy tadqiqotlarimizda institutning o'quv-tajriba xo'jaligida so'yilgan, ayrim holda turli kasalliklar tufayli o'lgan qo'zilar ichagida bular 1 nusxadan 13 nusxagacha *M.expansa* sestodlarini, yoki tezak namunalarini olish paytida ajralib tushgan bo'g'inlardagi tuxumlar bilan solishtirib bordik ular orasida farq yo'qligini qayd qilib bordik. Tadqiqot natijalarini 4-jadvalda o'z aksini topgan. (4-jadval).

Jadvaldagi raqamli ko'rsatkichlarga ko'ra shuni ta'kidlaymizki sug'oriladigan monieziyozga (*M.expansa*) nosog'lom bo'lgan hududda 2-3 oylik qo'zilarning tezak namunalarida *M.expansa* ning yetilgan bo'g'inlarni ajralib tushishi boshlanadi: 12 bosh qo'zilarning 2 boshining tezak namunalarida ushbu sestodning tuxumlari topildi. Bu esa ularni mart oyida yaylovda .

Gelmintokoprologik tekshirish orqali sug'oriladigan biotsenozda bir yoshgacha bo'lgan qo'zilarida monieziyozning oylik o'zgarishi

Tekshirish o'tkazilgan oylar (2024 y)	Tekshirilgan qo'zilar bosh soni	Qo'zilar yoshi	Monieziyalar bilan zararlanish			
			M. expansa		M.benedeni	
			Bosh sonda	foizda	Bosh sonda	Foizda
Fevral	12	2-3 oylik	2	16,6	-	-
Mart	18	2-4 oylik	4	22,6	-	-
Aprel	18	3-5 oylik	6	33,3	-	-
May	18	4-6 oylik	9	50,5	-	-
Iyun	18	5-7 oylik	10	55,5	-	-
Iyul	18	6-8 oylik	11	61,1	-	-
Avgust	18	7-9 oylik	11	61,1	-	-
Sentyabr	18	8-10 oylik	12	66,6	-	-
Oktyabr	18	9-11 oylik	13	72,2	-	-
Noyabr	18	10-12 oylik	14	77,7	-	-
Mart	18	11-13 oylik	14	77,7	-	-
Jami	192	2-13	106	55,2	-	-

M.expansa ning oraliq xo'jayini- oribatid (tuproq) kanalaridagi parazitning sistitserkoid bilan zararlanganligini ko'rsatadi. Shunday qilib fevral oyida qo'zilarni



Date: 9th February-2025



minimal darajada yani 16,6 foiz monieziyaning voyaga yetgan shakllari bilan zararlanganligini aniqladik. Agarda ushbu tur sestodni 36-38 kunda qo‘zi organizmida voyaga yetishini e‘tiborga olsak, unda ularni ikkinchi oylikidan monieziozga chalina boshlashini bildiradi. Mart oyida 18 bosh tekshirilgan 2-4 oylik qo‘zilarni 22,6 foiz, aprel oyida 3-5 oylik qo‘zilarni 33,3 foiz, may oyida 4-6 oylik qo‘zilarni 50, 0 foiz, iyun oyida 5-7 oylik qo‘zilarni 55,5 foiz, iyul oyida 6-8 oylik qo‘zilarni 61,1 foiz, avgust oyida 7-9 oylik qo‘zilarda o‘zgarish bo‘lmaganligini, sentiyabr oyida 8-10 oylik qo‘zilarni 66,6 foiz, oktiyabr oyida 9-11 oylik qo‘zilarni 72,2 foiz, noyabr oyida 10-12 oylik qo‘zilarni 77,7 foiz, mart oyida ushbu ko‘rsatkichni saqlanib turishini guvohi bo‘ldik. Yuqoridagi tadqiqot . natijalaridan ko‘rinib turibdiki *M.expansa* bilan yil bo‘yi zararlanadi, unga ularni ko‘proq chalinishi bahor oylarida ko‘zatilishi, yoz oylariga kelib u bir muncha susayadi. Shu orada eng birinchi monieziya bilan zararlangan qo‘zilarni asta- sekin ulardan holi bo‘lishi ko‘zatsilsa, ular o‘rniga boshqa qo‘zilarni zararlanishi qayd qilinadi. Kuz oylarida ham monieziyalarga chalinish davom etadi. Natijada monieziozning invaziya ekstensivligi yozdagi ko‘rsatkichga nisbatan yana 11,1 foizga ko‘tariladi.

1. Bizlarning tadqiqotlarimiz esa hozirgi paytda Samarqand viloyati sharoitida ushbu epizootologik holatni keskin darajada o‘zgarganligini, shunga ko‘ra endilikda *M.expansa* ni tarqalishi va u bilan qo‘ylarni zararlanish bo‘yicha birinchi o‘ringa chiqqanligini, *M.benedeni* ni ikkinchi o‘rinda saqlanib turishini, *A.centripunctata* ni uchinchi o‘ringa chiqishini, uning o‘rniga eng keng tarqalishga ega bo‘lgan *T.giardi* ni tushib qolganligini ko‘rsatdi.

2. Gelmitologik yorish yo‘li bilan tekshirilgan qo‘ylarning 35,5 foizini monieziozga, 32,2 foizini avitellinozga, 27,4 foizni tizanieziozga chalinganligi aniqlandi. 12,9 foiz qo‘ylarni faqat monieziyalar bilan, 8,1 foiz qo‘ylarni faqat avitellinalar bilan, 4,8 foiz qo‘ylarni faqat tizanieziyalar bilan zararlanganligi qayd qilindi. 6,4 foiz qo‘ylarda monieziyalar tizanieziyalar bilan, 9,6 foiz qo‘ylarda monieziyalar avitellinalar bilan, 6,4 foiz qo‘ylarda monieziyalar avitellina, tizanieziya bilan birga uchrashi kuzatildi.

3. Monieziozga chalingan 22 bosh qo‘ylarning 11 boshini, yoki teng yarmini faqat *M.expansa* bilan, 7 boshini yoki 31,8 foizini faqat *M.benedeni* bilan, 4 boshini esa (18,4 foiz) har ikkala tur monieziyalar bilan invaziyalanganligi aniqlandi. Bunday epizootologik ma‘lumotlar Samarqand viloyati sharoitida *M.expansa* bilan zararlanishni *M.benedeni* ga qaraganda ustun turishini, shu bilan birga *M.expansa* va *M.benedeni* larning alohida hamda aralash o‘choqlarini mavjudligini ko‘rsatadi.

Natijalar. O‘zbekistonning turli iqlim-geografik zonalarida qo‘ylarning ichak sestodlari bilan zararlanishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, moniezioz, tizaniezioz va avitellinioz kasalliklari keng tarqalgan. Monieziozning qo‘zg‘atuvchilari bo‘lgan Moniezia expansa va Moniezia benedeni ning epizootologik ustunligi aniqlandi. Tadqiqot davomida:

Qo‘zilar ichak sestodlari bilan yuqori invaziya ekstensivligi va intensivligi bilan zararlanganligi qayd etildi.

Date: 9th February-2025

Fyulliborn usuli yordamida o'tkazilgan gelmintokoprologik tekshiruvlarda M. expansa tuxumlari birinchi navbatda aniqlangan bo'lsa, M. benedeni nisbatan kam uchragan.

Mavsumiy o'zgarishlar parazitlarning tarqalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan bo'lib, bahor va kuz oylarida kasallikning avj olishi kuzatilgan.

Moniezioz bilan kasallangan qo'ylarning yarmidan ko'pi M. expansa bilan, 31,8% faqat M. benedeni bilan, qolgan 18,4% esa har ikkala parazit bilan aralash holda zararlangan.

Muhokama va munozara. Tadqiqot natijalari oldingi ilmiy manbalar bilan solishtirilganda, ichak sestodlarining tarqalishi bo'yicha ayrim o'zgarishlar kuzatildi. Oldingi tadqiqotlarda T. giardi va A. centripunctata keng tarqalganligi ta'kidlangan bo'lsa, ushbu tadqiqotlar M. expansa va M. benedeni ning epizootologik ustunligini ko'rsatdi.

Mavsumiy o'zgarishlarning parazitlarning tarqalishiga ta'siri avvalgi tadqiqotlar bilan mos tushdi. Bahor va kuz oylarida oribatid kanalarining faolligi ortib, qo'zilarining parazitlar bilan zararlanish ehtimoli oshgani aniqlandi. Yoz oylarida esa invaziya darajasi biroz pasaygani kuzatildi.

Shuningdek, Fyulliborn usuli va gelmintoskopiya usullarining diagnostik samaradorligi taqqoslandi. Fyulliborn usuli parazit tuxumlarini aniqlashda yuqori samaradorlik ko'rsatgan bo'lsa, ketma-ket yuvish usuli tuxumlarning suv ostiga cho'kishini kuzatishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, qo'ylarning ichak parazitlari tarkibi va ularning tarqalish holati oldingi tadqiqotlar natijalari bilan qisman mos keladi, ammo ayrim tafovutlar mavjud. Ushbu tafovutlar ichak parazitlariga qarshi kurash usullarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston hududida qo'ylarning ichak sestodlari keng tarqalgan bo'lib, ularning epizootologik xususiyatlari yosh va mavsumiy omillarga bog'liq. Eng yuqori invaziya ekstensivligi bahor va kuz oylarida kuzatilgan. M. expansa va M. benedeni parazitlari epizootologik jihatdan ustunlik qilib, ular bilan zararlangan qo'ylarning sezilarli qismi kasallik alomatlarini namoyon qilgan.

Veterinariya amaliyotida ushbu kasalliklarning oldini olish va davolash choralari ishlab chiqilishi zarur. Muntazam diagnostika, zamonaviy antiparazitar preparatlar bilan profilaktik davolash va ekologik nazorat choralari muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliyotga tavsiyalar

1. Muntazam diagnostika – Fyulliborn va gelmintoskopiya usullari yordamida qo'ylarni mavsumiy tekshirish talab etiladi.
2. Profilaktik davolash – bahor va kuz oylarida qo'ylarni anthelmintik preparatlar bilan muntazam ravishda davolash lozim.
3. Yaylov sanitar nazorati – yaylovlar gigiyenik nazoratdan o'tkazilib, oribatid kanalarining tarqalishini kamaytirish choralari ko'rilishi kerak.
4. Oziqlanish va parvarish – qo'ylarni muvozanatli ozuqa bilan ta'minlash va immunitetni oshirish maqsadida vitaminli qo'shimchalar berish tavsiya etiladi.



Date: 9th February-2025

5. Veterinariya xizmatlarini takomillashtirish – mahalliy xo‘jaliklarda veterinariya xizmatlarini rivojlantirish, parazitologik monitoring tizimini joriy etish lozim.

Ushbu tavsiyalar chorvachilik xo‘jaliklarida qo‘ylarning sog‘lig‘ini yaxshilash, mahsuldorlikni oshirish va iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдиев Т, Сувонкулов У, Коваленко Д, Абдиев Ф, Арзиев Х. Распространенность гельминтозов в Узбекистане. Журнал проблемы биологии и медицины. 2014 Aug 15(3 (79)):2-3.
2. Абдиев ТА, Сувонкулов УТ, Куркина ТН. Лечение эхинококкоза и других гельминтозов. Инфекция, иммунитет и фармакология. 1999:4.
3. Dosumbetovich, A. S., Uli, A. D. M., & Abdusalim, A. (2023). QORAQOLPOQSTON SHOROITIDA MAYDA UY HAYVONLARIDA NEMOTODA KASALLIGINING TARQALISHI. *Scientific Impulse*, 1(8), 43-47.4. Abatbaeva AM, Arziyev XY, Axmedov BN, Murodov XU. QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASI QUSHLIQ XOJALIQLARINDA MAREK KESELLIGINI JASQA BAYLANISLI DINAMIKASI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14223535>. In International scientific and practical conference 2024 Nov 15 (Vol. 1, No. 1, pp. 165-169).
5. Reyfnazarova NE, Murodov XU, Arziyev XY. QUSLAR JUQPALI LARINGOTRAXEIT KESELLIGINI ALDIN ALIW HAM EMLEW: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14223230>. In International scientific and practical conference 2024 Nov 15 (Vol. 1, No. 1, pp. 149-153).
6. Yuldashevich AK, Salomatovich TM, Ogli OD, Kizi AA, Amangeldiyevna MG. THE ROLE OF DEWORMING IN THE HEALTHY CARE OF HORSES. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*. 2022 Sep 30;2(09):85-9.
7. Arziyev KY, Togaymuradov MS, Allamurodov BP, Abdusamadov AA, Khudoyberdiev BK, Yusupov NB. The Role Of Anesthesia In The Prevention Of Cenurosis. *The American Journal of Veterinary Sciences and Wildlife Discovery*. 2021 May 12;3(03):1-7.
8. Arziyev KY, Rasulov SM, Togaymurodov MS. Blood Indications In Echinococcosis Of Large Horned Animals. *The American Journal of Veterinary Sciences and Wildlife Discovery*. 2021 Feb 27;3(01):9-15.
9. Абдиев Т, Сувонкулов У, Салимов Б, Вахобов Т, Арзиев Х. Научные основы профилактики эхинококкоза. Журнал проблемы биологии и медицины. 2016 Nov 14(4 (91)):200-2.
10. Абдиев Т, Саидахмедова Д, Сувонкулов У, Качугина Л, Вахобов Т, Абидов З, Арзиев Х. Клинические аспекты хронической посттравматической головной боли у детей и подростков. Журнал проблемы биологии и медицины. 2015 Nov 14(4, 1 (85)):8-9.
11. Erimov Sirijiddin Farhodovich, Djumaboev Abdurasul Baxt ugli, & Son of Mirzabekov Miyirbek O'mirbek ugli. (2023). «QUYON OTODEKTOZI»NING BIOMORFOLOGIK XUSUSIYATLARI, UNING SISTEMATIKADAGI O'RNI,



Date: 9th February-2025

LABORATORIYA DIGINOZI. *Intent Research Scientific Journal*, 2 (6), 132–140.
<https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/>

12. Farxodovich, E. S. (2023). DIXROSELIOZ QO'ZBARCHI SISTOGONIYASI PROGRESSIYASI BOSHQACHINING BA'ZI BIOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Intent Research Scientific Journal*, 2 (10), 70-77.

13. Erimov, S. F., Erimov, F. F., & Jumaniyozova, J. M. (2024 yil, noyabr). GASTROFILOYZ-OTLAR (EQUUS FERUS CABALLUS) HAVFLI ENTOMOZ KASALLIGI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222253>. *Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda* (1-jild, 1-son, 95-110-betlar).

14. Shakilov, U. N., Erimov, S. F., & O'ktamov, A. A. (2024, November). ATLAR GASTROFILOYZI QOZGAWTIWSHILARINA EKOLOGIYALIQ FAKTORLAR TÁSIRI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14219999>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 78-84).

15. Erimov, S. F., Erimov, F. F., & Jumaniyozova, J. M. (2024, November). QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI ARID IQLIM SHAROITIDA OTLAR GASTROFILOYZI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222297>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 110-116).

16. Shakilov, U. N., Erimov, S. F., & O'ktamov, A. A. (2024, November). GASTROFILOYZ KESELLIGI QOZGAWTIWSHILARINA ANTIGELMINT DÁRI ÓNIMLERI TÁSIRI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14220032>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 84-88).

17. Farhodovich, E. S. (2024). OTLAR GASTROFILOYZI QO 'ZG'ATUVCHILARIGA EKOLOGIK OMILLAR TA'SIRI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 56(5), 186-191.

18. Farhodovich, E. S. (2024). GASTROFILOYZ KASALLIGI QO'ZG'ATUVCHILARIGA ANTIGELMINT DORI VOSITALARI TA'SIRI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 56(5), 181-185.

19. Erimov, S. F., Erimov, F. F. va Djumaniyazova, J. M. (2024). GASTROFILOYZ OTLARNING XAVFLI ENTOMOSIK KASALLASI (EQUUS FERUS CABALLUS). *DUNYODA TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA G'OYALARI*, 56 (5), 174-178.

20. Erimov, S., Erimov, F., & Jumaniyozova, J. (2024 yil, noyabr). QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURG'OQ IQLIM SHARTLARIDA OTLARNING GASTROFILOYZI. *TIBBIYOT, FAN VA TA'LIM BO'YICHA XALQARO KONFERENSIYADA* (1-jild, No10, 63-70-betlar).

21. Erimov, S., Erimov, F., & Jumaniyozova, J. (2024). GASTROFILOYZ-OTLAR (EQUUS FERUS CABALLUS)-HAVEN ENTOMOSIS. *Pedagogika fanlari shakllanishining nazariy jihatlari*, 3 (19), 127-133.

22. Farxodovich, E. S., & Arislanbek o'g'li, A. I. (2023). ARALSEEBUCHTDA QO'YLARNING ORIENTOBILGARSIOZI EPIZOOTOLOGIYASI. *Intent Research Scientific Journal*, 2 (10), 106-114.



Date: 9th February-2025

23. Dauletabaev, N. P., & Tajimuratov, Q. (2024, November). YIRIK SHOXTI MOLLARDA PODODERMATIT KASALLIGINING ETIOPATOGENEZI, TARQALISHI VA UNI DAVOLASH: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222207>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 102-105).

24. Dauletboev, N. P. (2024). Turli xil tabiiy sharoitlarda kurkalarning tug'ruqdan keyingi ontogenez davrida oyoq suyaklari va mushaklarining morfometrik xususiyatlari adabiyotlarni ko'rib chiqish. *Fan va innovatsiyalar*, 3 (Maxsus 47-son), 698-701.

